

EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING AHAMIYATI HAMDA
ULARNING QIYOSIY TAHLILI

U.G'.Abdullayeva

FDU Kimyo kafedrasi o'qituvchisi

Jahon mamlakatlarida ekologik ta'lif va tarbiyani takomillashtirish O'zbekistonga nisbatan barvaqt boshlangan. Shimoliy Yevropa va Amerika mamlakatlarida atrof-muhitni muhofaza qilish strategiyasidan uning holatini hamma bosqichda nazorat qilishga tomon qaratildi. Mazkur davlatlarning ichki va tashqi siyosatlarining barcha sohalarida atrof-muhit muhofazasi masalalari kiritilganligi nazoratga olinib, insoniyatning atrof-muhitdagi barcha faoliyati barqaror rivojlanish tamoyillariga to'liq mos kelishiga xalqaro hamjamiyat e'tibori kuchaytirdi. Yangicha yondoshuvning diqqatga sazovor tomonlaridan biri jamoatchilikka turli xil ekologik axborotlarni erkin olish va tarqatishlariga keng huquqlar berilganligidadir.

O'zbekistonda esa maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarga beriladigan ilk ekologik tushunchalar kelgusida maktablarda olinadigan tabiat bilan tanishtirish ta'lif uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda ekologik ta'lif-tarbiyani takomillashtirishning algoritmik bosqichlari, ya'ni oddiydan murakkabga, uzviylik va uzlusizligi tarbiyalanuvchilarining yoshi, jismoniy imkoniyatlari va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda nazariy va amaliy bilimlarning aloqadorligini maqsadli tizimlashtirish e'tiborga olingan. Tabiat bilan tanishtirish bilim mazmunini tanlab olish asosidagi tamoyil – qulaylik tamoyilidir. Mazkur tamoyilga asosan, maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalar uchun mo'ljallangan dasturlarga bolalarning qabul qilish qobiliyatini va ularning o'ziga xosligini hisobga olgan holda o'zlashtirishlari qulay bo'lgan bilimlar tanlab olinadi. Bu tamoyil, ayniqsa, muayyan yosh guruhi uchun belgilangan bilimlarning mazmuni va xarakterida namoyon bo'ladi.

Ekologik madaniyat-insonning tabiatdagi o'rnnini, ona shahri yoki qishlog'i uchun tabiat muhofazasi borasidagi faoliyatining ahamiyatini, yer va havo, ko'l, daryolarni toza saqlash masalalarini hal etishda faol hayotiy nuqtai nazarning shakllanganligi. Aholining ekologik madaniyatini va atrof muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishni shakllantirishga qaratilgan ushbu faoliyat – butun insoniyat kelajagi xavfsizligining garovidir. Bugungi kunda barcha ijtimoiy ong darajalari va madaniyat shakllarining ekologik manfaatlar doirasida integratsiyalashuvi jarayonlarining kuchayishi kuzatilmogda. Bunday vaziyatda ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayonida o'zaro bog'liq,

lekin nisbatan mustaqil ikki yo‘nalishni bir – biridan ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq.

